

OYBEKNING "QUTLUG' QON" ROMANIDAGI MAQOLLARNING BADIY AHAMIYATI

Saitqulova Xilola Sadan qizi

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Nazarova Xilola Gulomjonovna,

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

E-mail: xilolasaitqulovasadanqizi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Qutlug' qon" romanida xalq maqollaridan foydalanish mahorati yoritib berilgan. Bu orqali asarning mazmun–g'oyasi bilan birgalikda qahramonlar xarakteristikasi ochib berilgan. Asarda maqol, matal va aforizmlardan unumli foydalanilganligi. Bu bilan muhit va davr ziddiyatlari yoritilib, bu orqali o'zining yozuvchilik mahoratini ko'rsata olgan.

Kalit so'zlar. Oybek, "Qutlug' qon", maqol, matal, Yo'lchi, xarakteristika, yozuvchi mahorati, yozuvchi uslubi, asar badiiyati.

OYBEK'IN "KUTSAL KAN" ROMANINDA ATASÖZLERININ SANATSAL ÖNEMİ

Saitqulova Xilola Sadan qızı,

Özbekistan–Finlandiya Pedagoji Enstitüsü öğrencisi

Nazarova Xilola Gulomjonovna,

Bilimsel danışman: Özbek Dili ve Edebiyatı Bölümü asistanı

Özet. Bu makalede Musa Taşmuhammed oğlu Oybek'in "Kutluğ'un" adlı romanında halk atasözlerinin ustalıkla kullanılması konusu ele alınmaktadır. Bu, eserin içeriği ve fikriyle birlikte karakterlerin karakterini de ortaya koyar. Eserde atasözleri, deyişler ve vecizelerden etkili bir biçimde yararlanılmıştır. Bu durum, çevrenin ve çağın çatışmalarını ön plana çıkararak yazarın yazarlık yeteneğini ortaya koymuştur.

Anahtar kelimeler. Oybek, "Hatıra Kanı", atasözü, deyim, Seyyah, karakterizasyon, yazım becerisi, yazım tarzı, eserin sanatsal niteliği.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ В РОМАНЕ ОЙБЕКА «СВЯЩЕННАЯ КРОВЬ»

Саиткулова Хилола Садан кызы,

Студентка Узбекско-Финского педагогического института

Назарова Хилола Гуломжоновна,

Научный руководитель: ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье рассматривается мастерство использования народных пословиц в романе Мусы Ташмухаммад оглу Ойбека «Кутлуг кон». Это раскрывает характеры персонажей, а также содержание и идею произведения. В произведении эффективно использованы пословицы, поговорки и афоризмы. Это подчеркнуло конфликты окружающей среды и эпохи, продемонстрировав тем самым его писательское мастерство.

Ключевые слова. Ойбек, «Кровь памяти», пословица, поговорка, путешественник, характеристика, писательское мастерство, стиль письма, художественное качество произведения.

THE ARTISTIC SIGNIFICANCE OF PROVERBS IN OYBEK'S NOVEL "BLESSÈD BLOOD"

Saitqulova Xilola Sadan qizi,

Student of the Uzbekistan-Finland pedagogical institute

Nazarova Xilola Gulomjonovna,

Scientific advisor: Assistant at the department of Uzbek language and literature

Abstract. *This article highlights the skill of using folk proverbs in the novel "Kutlug' khon" by Musa Tashmuhammad oğlu Oybek. This reveals the content-idea of the work, as well as the characteristics of the characters. The work effectively uses proverbs, sayings and aphorisms. This highlights the contradictions of the environment and the era, and thus demonstrates his writing skills.*

Keywords. *Oybek, "Kutlug' khon", proverb, saying, Traveler, characterization, writing skills, writing style, artistic style of the work.*

O'zbek yozuvchilarining xalq maqollariga bo'lgan intilishlarini jamiyatimizni, voqelikni realistik aks ettirish uchun prinsipial intilishlari deb qaramog'imiz lozim. Ulug' rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning ta'biri bilan aytganda, maqol, matal va aforizmlarda "tildagi xalq fizionomiyasi" ifodalanadi. O'zbek adabiyoti materiallarini o'rganish jarayonida xalq aforizmlarini yirik badiiy asarning asosiy sujeti va mazmuniga singib ketganligi bilan izohlandi. O'zbek yozuvchilari yaratgan roman va povestlarda; hikoya va ocherklarda; drammatik va she'riy asarlarda; milliy ruhiyatni yorqin yoritib berishda, personaj xarakteri hamda psixologiyasini ochishda, tilni individuallashtirishda; reallik va xalqchilikni ko'tarishda maqol va hikmatli iboralar asosiy badiiy vosita vazifasini bajargan. Adabiyotning har bir janri o'z tiliga, o'ziga xos vosita va imkoniyatga ega. Proza hajm jihatidan keng va so'zlashuv tiliga juda yaqin bo'lganligi sababli unda maqol va aforizmlar adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda katta o'rin tutadi. Bizga o'zbek adabiyoti hamda tilshunosligidan ham ma'lumki maqollarning uslubiy imkoniyatlarining o'rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishilgan. Bu jihatdan V.Abdullaev [1.115-122], L.Azizxonova [2.54-57], S.Asqarov [3.19-22], A.Jo'raxonov [4.52-55], M.Hakimov [7.171], E.Qilichev [6.212-218], M.Husainov [8.55-61], B.O'rinboevlarning [9.4] ishlari diqqatga sazovordir.

Xalq maqollaridan foydalanishda ham har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos uslubi borki, bu uslub o'sha yozuvchi va shoirning badiiy uslubini belgilashda katta rol o'ynaydi. Agar biz Abdulla Qodiriy bilan Sadridin Ayniyning, Oybek bilan Abdulla Qahhorning, G'afur G'ulom bilan Shayxzodaning asarlarini o'qib, xalq hikmatlaridan foydalanish mahoratiga diqqat qilsak, ularning har biri o'ziga xos uslubga ega ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu qatorida o'zbek adabiyotining rivojlanish jarayonini ulug' adibimiz Oybek ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning romanlaridagi yorqin obrazlar o'tmish va hozirgi zamonning eng muhim jihatlarini aks ettiradi.

Yozuvchi proza sohasida yirik asarlar yaratishi bilan maqol va aforizmlarga ko'proq murojaat qila boshladi. Uning "Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiya shabadalar", "Quyosh qoraymas" romanlarida, "Nur qidirib", "Bolalik" povestlarida 400 ga yaqin maqol, matal va hikmatli so'zlar ishlatib o'zining yozuvchilik mahoratini ham ko'rsata olgan. Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratdi. Obrazlarning tipik va individual bo'lishi uchun turli-tuman tasviri vositalari, shu jumladan, jonli tilning qaymog'i bo'lgan xalq aforizmlari, maqol, matal, hikmatli so'zlar, iboralar hamda badiiy-tasviri vositalardan unumli foydalana olgan.

"Qutlug' qon" romani Oybekning birinchi eng yirik asari hisoblanib, asarda qamrab olingan hayot va voqealar haqida adibning o'zi shunday yozgan edi: Kichkinaligimdan bir tomonda boylar, gerdayib yurgan xasis savdogarlar, ochko'z sudxo'rlar, tekinxo'r yirik yer egalari, din va shariat sohiblari o'zlarining makkorliklari yo'lida hech narsadan tab tortmaydigan ulamolar; ikkinchi tomondan, bechoralikdan ezilgan, tirikchilik mashaqqati toshida hadsiz chaqilgan kambag'al

chorikorlar, behol dehqonlar, g'arib miskin kosiblar hayotini ko'rib o'sdim. Turmushning bu dahshatli haqiqati, hayotning fojiali, achchiq, ayanchli ko'rinishlarini ko'rgan va anglagandim. "Qutlug' qon" shu hayotning bir kichik lavhasidir".[10.6] Xuddi mana shu hayot kartinasi romanda ishtirok etgan personajlarning individual til xususiyatlarida ochib berilgan. Asarda mehnatkash xalq vakillari Yo'lchi, Gulnor, Qoratoy, Shokir ota hamda yuqori tabaqa vakillari Mirzakarimboy, Abdushukur, Salimboyvachcha, Hakimboyvachcha, Tantiboyvachcha kabilarning xarakteristikasi yozuvchi tomonidan ishlatilgan maqol, matal va iboralar orqali o'quvchiga yanada tushunarli holda ochib berilgan.

Mirkarimboy odam ishlatishga usta va ehtiyotkor inson bo'lgan. U qishloqi jiyani Yo'lchini ayyorlik bilan o'zida ishlatishga olib qolib, uni tekin mehnat manbai deb biladi. Shuning bilan birga "Sinamagan otning sirtidan o'tma deb Yo'lchining arslonday gavdasi va mag'rur siymosidan cho'chiydi. Yozuvchi bu maqolni keltirish bilan boyning o'z jiyaniga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashini va unga ehtiyotlik bilan muomala qilishi kerakligini ifodalagan. Adib Mirzakarimboy ni ilm-fanga bo'lgan munosabatini "Har kim o'qiyversa, podani kim boqadi" maqolini keltirish bilan umumlashtirgan. Boy yuqori tabaqa bolalarining oqishiga e'tiroz bildirmaydi, o'z o'g'illarini ham o'qitgan. Lekin mehnatkash, kambag'al xalq bolalarining o'qishini aslo istamaydi. U jadid Abdushukurning maktab ochish haqidagi fikrlariga qo'shilmaydi: "Har kim o'qiyversa, podani kim boqadi? Mardikor, ahli kosib, beva-bechora o'z qornini to'ydirsa bas-da. Ulaming bolalari o'qib, ilm olib nima karomat ko'rsatar edi"[5.38] degan fikri bilan boyni zamondan kelib chiqib fikrlashiga urg'u berib ketgan.

Butun asar davomida Mirzakarimboy nutqida ishlatilgan maqollar uning xarakterini ochishda muhim o'rin kasb etgan. Boyning Yo'lchiga "Bir terining ichida qo'y necha ozib, necha marta semiradi" [5.7] deganda zulm va haqsizlikka ko'nikish uchun nasihatgo'yligini, gumashtasi bo'lgan Mahamadrasiyga "Sichqon teshgan supradan un to'kilaveradi" [5.139] aytganida esa ustamonlik, ayyorlik o'z ifodasini topgan. Oybek boyning nutqida yana bir nechta maqollar qo'llaydiki, ular boyning ma'naviy qiyofasini bevosita yalong'ochlab ko'rsatadi.

Asardagi Yormat obrazini individuallashtirish uchun qo'llanilgan maqollar ham juda o'rinli hisoblanadi. Yormat 16 yil mobaynida Mirzakarimboyga tinim bilmasdan xizmat qiladi. U o'zini boy xonadonining odami deb biladi. U Yo'lchini ishga boshlar ekan gerdayib o'zining xo'jayinligini bildirmoqchi bo'ladi. "Mehmonni ishga solarkanmizda, -deydi. Yo'lchini birga olib jo'narkan Yormat, -ha "qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga" [5.6]. Yormat Yo'lchining "Siz xo'jayindan yillik haq olsangiz kerak? deb bergan savoliga quyidagi javobni beradi: "Xudo haqi, men xizmatimga bir narsa bering deb so'ramayman. Insof o'zlaringga bersin, deyman-da yuraveraman. Qishda xo'jayinlarning yonboshida bo'lgan bir katalak hovlida yashaymiz. Yozda anovi bog'ning orqasidagi ayvonchada turamiz. O'z dekchamizni o'zimiz qaynatamiz. Xo'jayinning qozonidan unda-munda bir totmasak... Yo'q moysiz bo'lsa ham, o'z dekcham yaxshi. Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi... Uka bor-boricha, yo'q holicha, ish qilib bir kunimiz o'tib turibdi, tirikchilik qiyin. Non topolmay ko'chada gadoylik qilib yurganlar ozmi, uka? Xudo shundan saqlasin..." [5.12]. Yo'lchi bilan Yormat o'rtasidagi bu dialogdan Yormatning boyga sodiq qo'l ekanini, og'ir taqdirga ko'nikib, "bor-boricha, yo'q holicha" degan fikr-xayol bilan yashashini anglaymiz.

Yormat och-gadolardan va jabr-jafo chekkanlardan, xorlanganlardan o'zini chetga oladi, insonga shafqat va muruvvat qilishni bilmaydi: kambag'al mo'ysafid dehqonga suv bergani uchun Yo'lchini koyiydi: "Balli,-qovog'ini solib deydi Yormat, "oltin olma, duo ol",-degan qadimgilarning so'zi bor. Lekin duo olaman deb xo'jayinga zarar yetkazish yaramaydi".[5.23] Yana bir o'rinda Yo'lchi o'yinchi bolani o'limdan qutqarishi uchun qarshilik ko'rsatadi: "Qayerda g'alva do'ppi qochavering: "och qornim, tinch qulog'im". Kimni himoya qilasiz. Bir bachchanimi?".[5.29] Yozuvchi ushbu maqollarni qo'llash orqali Yormat xarakterini ko'rsatib bergan.

Romanda mehnatkash xalq vakillarining xarakteri, turmushning har xil to'qnashuvlarida shakllanib borgan. Qahramonlar sinfiy ongning o'sishi bilan ularning nutqi ham o'sgan. Oybek romanning asosiy qahramoni Yo'lchining tadrijiy takomilini ko'rsatar ekan, uning individual til

evolyutsiyasini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Yozuvchi Yo'lchi bilan Eshboy o'rtasida bo'lib o'tgan dialogda maqol va iboralar orqali ularning tilini badiiylashtirgan. Yo'lchining qishloqdagi qo'shnisi Sarimsoqning chorikori Eshvoy unga onasidan salom keltiradi, besh-o'n tanga pul so'rab yuborganini aytadi. Yo'lchi Mirzakarimboydan pul so'ramoqchi bo'ladi. Shunda Eshvoy deydi: "*So'raganning aybi yo'q, - dedi Eshvoy, -bola yig'lamasa, ona sut bermaydi. Boy o'z urug'ing ekan, yaxshi muruvvat qilar. Ha, hammasini birdan olma, bir bo'lagini ol. Qolgani boyda turgani ma'qul. "Och uyda qatiq ivimas", degan maqol bor, yeb qo'yanlar*". Eshvoy davom etib yana ta'kidlaydi: "Shunday qilib, jon uka. Ishonchli odamdan yubor. Hamqishloq deb har kimga ishonib bo'lmaydi. Bu zamonda *o'ng ko'zing so'l ko'zingga yov*. Eshvoy jo'nab ketgach, Yo'lchi yolg'iz qolar ekan, mushkul masalani-boyning oldiga kirib pul so'rashni o'ylaydi: "Nega bular o'z bilgilaricha bermaydilar? "*Qorni ochdan qorni to'qning nima parvoyi bor*", degan gap-haq ekanda. Qishloqda o'z jiyanlarining och yalong'ochligini bilsalar kerak edi".[5.66] Demak, Eshvoy bilan Yo'lchi o'rtasidagi bu dialogda bir necha maqol, xalq iborolari juda o'rinli ishlatilgan. Har bir personaj o'ziga munosib iboralar bilan so'zlaydilari. Eshvoyning "*o'ng ko'zing so'l ko'zingga yov*" degan iborasida sinflar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar badiiy talqin etilgan. "*Och uyda qatiq ivimas*" deyishida esa kambag'alning biri ikki bo'lmasligi aks etgan. Bundan m'lum bo'ladiki, Eshvoy Yo'lchiga nisbatan ko'pni ko'rgan, fikr-tushunchasi bir qadar keng inson bo'lgan. Yo'lchi og'ir qismlarni boshidan kechirib boyning dargohidan ketadi. Jadid Abdushukur bilan uchrashganda uning boyga homiylik qilishiga qarshi javoban deydi: "*Yer kuch bilan, ter bilan unum beradi*" man kuchimni, terimni to'kay, foydasini soyaparvar boylar ko'rsin. Man ikki qo'limni burnimga tiqib qolaveray. Qani iflos?... Nega boy yo'q, kambag'al yo'q deysiz? Mirzakarimboy boshqa, man boshqa. Xo'jayinlar bor, malaylar bor. *Oyni etak bilan yashirib bo'lmaydi?*" [5.123]. Yo'lchining Abdushukur bilan qilgan bu dialogi boy bilan o'zi o'rtasidagi tafovutni tushunib etishining kulminatsiya-sidir. Yo'lchining ongidagi o'sishning mana shu kulminatsion nuqtasi suhbat oxirida ushbu maqolni keltirish orqali o'z ifodasini topgan.

Asar oxirida Yo'lchining adolat uchun kurashga munosabati "*Zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak, Xalq o'z ishini bilib qiladi*",-degan iboralar bilan ifodalanadi. Yo'lchi olomon bilan yangi shahardagi politsiya mahkamasi tomon boraveradi. Xalq ko'ziga bu eng qora, eng mudhish mahkama edi. Yo'lchi o'z ichida "*zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak*" deb o'ylaydi [5.125]. Yozuvchi politsiya mahkamasiga bostirib borgan xalqning ongida jasorat paydo bo'lganini quyidagi xitob bilan beradi: "*Urush qursin, qashishga tirnog'i ham qolmadi, hammasini Mekalay yedi. Jabrning to'qmog'iga toqat yo'q, yotib qolguncha otib qol*".[5.125] Oybek bu yerda personajlarning nomini aytmasa ham ularning nutqi orqali ushbu maqolini keltirib, romanning butun g'oyaviy yo'nalishini aks ettirgan. Chunki bu maqolda xalqning chorizm istibdodiga qarshi o'tlanishi va uyushishi o'z ifodasini topgan. Yozuvchi romanda mehnatkash xalqning boshqa bir qancha vakillari tilidan ham ko'plab maqollarni keltirgan. Shokir ota tilida berilgan "*Bo'zchi belboqqa yolchimas, kulol mo'ndiga*" maqoli uning kambag'al va nochorligi; "*Ta'ma noniga qo'l ochgandan o'l och*" maqoli uning ma'naviy yuksakligidan dalolat beradi.

Yo'lchi singlisi Unsinni Shokir otaning uyiga olib keladi. Shokir ota qizni samimiy qarshilaydi. Shunda Yo'lchiga Shokir ota: "Yaxshi qilibsan: *Kabutar bo kabutar, jins bo jins*. Ma'nosini tushundingmi? To'g'ri ular qarindoshing. Lekin ular sani o'z jinsiga qo'shmaydi. Ular pul jinsida... Unday qarindoshlardan yetti yot begona yaxshi. "*O'zi yo'qning ko'zi yo'q*". Sen yo'qsan bu qizni xo'rlaydi.[5.152] Shokir otaning nutqida ikki sinf o'rtasidagi farqni, boylarning ezilgan xalq uchun mutlaqo qayg'urmasligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Oybek o'zining birinchi yirik asari bo'lgan "Qutlug' qon" romanida o'zbek xalqining o'tmish hayotini, uning uyg'onishini personajlar tilini xalq aforizmlari orqali individuallashtirish bilan badiiy aks ettira olgan. Romandagi maqollar xalqchillik va reallikning muhim manbayi bo'lib xizmat qilgan. Bulardan tashqari, yozuvchi asarda qahramonning ayni paytdagi ruhiy holati va kayfiyatini, kishilarga, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatini ifodalashda "Ilondan chayon tug'iladi", "Yer bag'ri qattiq", "Har kimning o'z elati o'ziga shirin", Jon yer, jon olov", "Qish o'chog'i tor, ko'p o'yingga bor", "Yaxshi

niyat-yorti mol" kabi juda ko'plab maqol va matallarni qo'llaganligi ham bejiz bo'lmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев В., Дониёров Х., Мирзаев С. Шиддаткор одамлар киссаси, Шарк юлдузи. – Тошкент, 960, 2-сон, 115-122-бетлар.
2. Азизхонова Л. Навоий романидаги фразеологизмларнинг рус тилига таржимаси // Узбек тили ва адабиёти. 1970, 3-сон, 54-57-бетлар.
3. Аскарлов С. Кодирий ижодида фольклорнинг баъзи масалалари // Узбек тили ва адабиёти. 1973, 1-сон, 19-22-бетлар.
4. Жураховов А. Мукикийнинг халк маколларидан фойдаланиш махорати // Узбек тили ва адабиёти. 1974, 4-сон, 52-55-бетлар.
5. Ойбек. Qutlug' qon. O'n tomlik uchinchi tom. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. T.: 1969. 180 b.
6. Киличев Э. С. Айний асарларида халк маколларининг кулланилиши // Узбек совет фольклори масалалари. – Тошкент: Фан, 1987, 212-218- бетлар.
7. Хакимов М. Ёзувчи ва халк тили. – Тошкент: Фан, 1971.-171 б.
8. Хусаинов М. Ойдин асарлари фразеологияси // Труды самГУ. №106. -Самарканд, 1961, 55-61-бетлар
9. Уринбоев Б, Гафур Гуломнинг халк маколларидан фойдаланиш махорати//Жомбой тонги. 2003, 14май. 12 б.
10. Укитувчилар газетаси, -Т:1990. 16 .06 сон. 24 б.
11. G'afurov A. O'zbek tilining frazeologik birliklari. Fan, – Toshkent, 1995.–280 b.